

SHARQ VA G'ARB FALSAFASI RIVOJLANISHGA TA'SIRI, UNING ZAMONAVIY O'ZIGA XOSLIGI

Po'latova Shahnoza Vohid qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti fakulteti chet tillari fakulteti talabasi

Annotatsiya: Davr o'zgarishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi va jamiyat tizimi o'zgarishi bilan kishilarning ijtimoiy hayoti ham, insonlarga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Bu borasida Sharq va G'arb falsafasida o'z ifodasini topdi. Ushbu maqolada Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishga ta'siri, uning zamonaviy o'ziga xosligi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharq, G'arb, falsafa, inson, ma'naviy, jamiyat, davlat.

Qadimgi Sharq va G'arbda falsafaning rivojlanishi, o'ziga xosligi va betakrorligidan qat'iy nazar, ayrim umumiy qonuniyatlarga ega. Birinchidan, falsafiy tafakkur Sharqda ham, G'arbda ham ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o'zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ammo mifologiyada insoniyat tarixida ilk bor bir qancha falsafiy masalalar ham qo'yiladi: dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi; hayot va o'lim nima va h.k.

Ikkinchidan, G'arb va Sharq falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan. Xitoyda falsafa bu yerda jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, chunonchi: jamoalar kasodga uchrab, yangi yer

mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan.

Yunonistonda antik falsafa miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («polislar»)da avval Kichik Osiyoning G'arbiy qirg'og'ida (Ioniyada), so'ngra – Sitsiliya orolining yunonlar yashaydigan shaharlarida va nihoyat, Yunonistonda – Afinada (miloddan avvalgi V asr) vujudga kelgan va qadimgi dunyo madaniyati ravnaq topishi uchun shart-sharoitlar yaratgan sinfiy, quldorlik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Qadimgi Markaziy Osiyoda falsafaning vujudga kelishi va rivojlanishi ham sinfiy (feodal) jamiyatning rivojlanishi va davlatning shakllanishi bilan bog'liq. Amudaryo bo'ylaridagi xalqlar, xususan Xorazmda eng yirik davlat tuzilmalari bo'lgan.

Shuni qayd etish lozimki, keyinroq vujudga kelgan davlatlarda falsafaning shakllanishiga qadimgi davlatlarning ilk falsafiy tizimlari ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchidan, G'arb va Sharq falsafasi umuminsoniy qadriyatlarga qarab mo'ljal oladi. U insonni hamisha qiziqtiruvchi hodisalarni o'rganadi, Qadimgi manba «Avesto»da ko'rsatilgani kabi «qanday qilib yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash va yaxshi ish ko'rish mumkin», degan savolga javob topishga harakat qiladi. Bu noyob mevalardan bahramand bo'lish uchun inson falsafiy donishmandlikni o'zlashtirishi lozim: u dunyo va uni anglab yetish, inson va tabiat, inson hayotining mazmuni va boshqa shunga o'xshash muammolarda mo'ljal ola bilishi kerak.

Qadimda Sharq falsafasi ham, G'arb falsafasi ham yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, do'stlik, birodarlik, muhabbat va nafrat, baxt, lazzatlanish va azob chekish kabi muammolarning yechimini izlagan. Bu jarayon o'sha davr buyuk faylasuflarining fikrlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi:

Zardo'sht "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal".

“Geraklit: «Men uchun bir kishi, agar u hammadan yaxshi bo'lsa, o'n ming kishiga teng»;

Demokrit: «Axmoqni maqtagan aslida unga yomonlik qiladi»;

Epikur: «O'lim qo'rqinchli emas: men ungacha mavjudman, u mendan keyin mavjud»;

Platon: «Oliyhimmat lilik – vaziyatdan mohirona foydalanish: aql-idrok bilan bog'langan sahovatlilik»;

Aristotel: «Do'stlik birga yashashning zaruriy shartidir»;

Konfutsiy: «Odamlar seni bilmasliklaridan g'am chekma, o'zing odamlarni bilmasligingdan g'am chek»;

Laoszi: «Yuksak fazilatli inson odamlar bilan munosabatlarda xushmuomala bo'lishi, mamlakatni boshqarishda izchil bo'lishi lozim; ishda imkoniyatlardan kelib chiqishi, harakatda vaqtni hisobga olishi lozim».

Beshinchidan, falsafiy bilimning dunyoqarash bilan bog'liqligi ham G'arb va Sharq falsafasi rivojlanishining qonuniyatidir. Biz istaymizmi, yo'qmi, lekin falsafiy g'oyalar, qarashlar, nazariyalar va tizimlar yo idealistik, yo materialistik, ba'zan eklektik (bu ikki dunyoqarashning birikmasi) bo'ladi. Jumladan, qadimgi Yunonistonda Milet falsafiy maktabi namoyandalarining asarlarida falsafiy muammolarning materialistik talqiniga duch kelish mumkin. Bu maktab asoschisi Fales suvni, Anaksimender – havoni, Anaksimandr – apeyron (mavhumlik)ni hamma narsaning birinchi asosi deb hisoblaydi. Dunyoning materialistik asoslarini Anaksagor taklif qiladi. Uning fikricha, barcha narsalar muayyan «urug'lar»dan iborat. Ularni Anaksagor gomeomeriyalar deb nomlagan. Empedokl o'zining «Tabiat haqida» asarida olov, havo (uni Empedokl efir deb nomlagan), suv va yer turli narsalarning birinchi asoslaridir, deb qayd etgan. Shunga o'xshash fikrlarga Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Masalan, hindlarning qadimgi falsafiy kitobi «Upanishada»da, shuningdek «chervaka» qadimgi hind falsafiy maktabiga doir manbalarda suv, olov, yer, havo, Zardushtiylik ta'limotida olov butun borliqning substansional asosidir, deb qayd etiladi. Ko'rib turganimizdek, bu fikr Empedokl ta'limoti bilan hamohangdir.

Yunon olimlaridan Suqrot ham, Demokrit ham, Aflotun ham axloq masalalariga alohida to'xtalganlar. Jumladan, bu mutafakkirlarning quyidagi fikrlari, hikmatlari diqqatga sazovor:

“Mard bo‘lish uchun, mardlik haqidagi bilimni egallash kerak”, “Qanoatli bo‘lish uchun, hissiyotlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak”, “Adolatli bo‘lish uchun, birovlariga qanday qilib yaxshilik qilishni o‘rganish kerak”, – deb Suqrot ta’lim bersa, axloqni birinchi marta bilim bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlasa, Aflotun yaxshilik g‘oyasi haqida fikr yuritib, “yaxshilik g‘oyasida go‘zallik, me’yor, haqiqat” kabi tushunchalar uyg‘unlashgan bo‘lishini bayon etadi. Demokrit esa “insonni baxtli qiladigan narsa pul ham emas, jismoniy kuch ham emas, balki haqiqat va har tomonlama donolikdir”, “Eng og‘ir paytda o‘z burchiga sodiq bo‘lib qolish, buyuk ishdir”, “Me’yordan o‘tib ketsa, shirin narsa ham achchiqdir”, – deydi.

Faqat G‘arb mutafakkirlari emas, balki Sharq mutafakkirlari ham jamiyat taraqqiyotida axloqning roliga juda katta diqqat-e’tibor qaratgan.

“Insoniyat tafakkuri taraqqiyotida ilk bora ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgulikka asoslangan amaliyot birligi har qanday ijtimoiy rivojlanishning asosi ekanligi to‘g‘risidagi buyuk ta’limot Zardusht gohlarida shakllantirilgan edi. Fuqarolari boshqa fikrni o‘ylab, boshqa so‘zlarni aytishga va yana boshqa amaliy ishlar qilishga yo‘naltirilgan jamiyat muqarrar tarzda tanazzulga yuz tutishi mumkinligi to‘g‘risidagi inqilobiy g‘oya ham aynan shu ta’limotga mansub. Insoniyat ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amaliyotga izchil amal qilibgina inqirozdan qutilishi va farovon hayotga yetishishi mumkin, degan purhikmat xulosalar chiqarilgan” 2 .

Zardushtning muqaddas kitobi “Avesto”da bayon etilgan bu durdona fikrlar zamirida yuksak axloq, komil inson qiyofasini aks ettiruvchi axloqiy fazilatlar ifoda etilgan. Darhaqiqat, agar odamda ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal uyg‘un bo‘lmas ekan, unda odamning qadr-qimmatini ham bo‘lmaydi, unday odamga ishonib ham bo‘lmaydi, unday odam ko‘pchilik nazaridan qoladi.

Tasavvuf axloqshunosligining ulkan namoyandalaridan biri yurtdoshimiz Aziziddin Nasafiy ta'rifiga ko'ra, komillik – inson degan ulug' nomga munosiblik, odamlar koinotning qaymog'i, komil inson odamlarning qaymog'i va xulosasidir. Yuksak axloq egasi, uning yerdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasm-rusumlarni yo'qotib, yaxshi ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni joriy etish. Bu darajaga yetishish uchun esa inson o'zini anglab yetishi kerak. Zero, allomaning fikricha, o'zini anglamagan kishi hech narsa anglamay dunyodan o'tadi.

Xo'sh, inson o'zini to'liq anglashi mumkinmi? Mumkin. Buning uchun u to'rt maqomni bosib o'tishi kerak: xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq, ma'rifat. Mazkur maqomlarga erishish oson emas; butun borlig'i bilan berilib harakat qilgandagina, o'zini unutib, o'zligiga erishgandagina inson ularga muyassar bo'ladi. Bu holatni faylasuf shunday badiiy shaklda ifodalaydi: “Birida o'lmagan odam, ikkinchisida tug'ilmaydi. Hordiqni istasang – ishda o'lgin, Xudoni istasang – o'zingda o'lgin. O'z ishingda o'lolsang, hordiqni izlama, o'zingda o'lolmasang, Xudoni izlama” 3 . Lekin maqsad “Xudoni izlash bo'lmasligi kerak, chunki Xudo hamma yerda mavjuddir va uni izlashning hojati yo'q. Borliqning vujudi – Undan... borliq Uning o'zidir” 4 . Shu sababdan inson yuqoridagi to'rt martabani chetdan izlashi kerak emas, ular insonning o'zida mavjud. “...senda avval boshdagi va oxiridagi ilmu ma'rifat yashiringan, nimaiki izlasang, o'zingdan izla, nega tashqaridan qidirasan”

Komil insonga yaratgan tomondan ko'rsatilgan bunchalik hurmat - e'tiborning, oliy ehtiromning boisi, uning ham ilohiy, ham dunyoviy takomilga erishgani uchundir. Bu yuksak axloq egalarining har ikki dunyo uchun buyuk xizmatlari jannatni kengaytirish va do'zaxni toraytirishdan iborat. Shu bois ular koinotning sarvari, barcha borliq ular uchun yaratilgan.

Komillikka inson qadam-baqadam yetishib boradi, lekin bu darajalar mutlaq diniylikni taqozo qilmaydi, balki dunyoviy hayotda ham pok bo'lishni, dunyoviy taraqqiyotga ta'sir etishni, jamiyatning yuqori bosqichga ko'tarilishini talab etadi.

Sharq ma'naviy sivilizatsiyasi shaxsning borlig'iga, uning o'zlikni anglash tuyg'usiga va moddiy dunyodan uzoqlashish orqali o'zini o'zi kamol toptirishiga murojaat etish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, bu Sharq xalqlarining turmush tarzida va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish usullarida o'z aksini topgan.

G'arb ma'naviy sivilizatsiyasi o'zgarishlarga, haqiqatning tagiga yetish yo'lidagi izlanishlarga ochiq bo'lgan. Bu izlanishlar turli, shu jumladan ateistik, intellektual va amaliy yo'nalishlarda kechgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Политика. –М., 1911
2. Тоҳир Карим. Миллий тафаккур тараққиётидан. –Т.: Чўлпон, 2003.
3. Насафий Азизиддин. Забдат ул-хайуойиқ. Н.Комилов таржимаси. –Т.: Камалак, 1995,
4. <https://library.navoiy-uni.uz/files/shermuhamedov%20n.%20falsafa.pdf>
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sharq_falsafasi
6. https://uzpedia.uz/pedia/sharq_falsafasi